

AXBOROT OLISH HUQUQI , XAVFSIZLIGI VA „YOLG'ON XABAR”(„FAKE NEWS”) MUAMMOSI :MAQSADLARI ,TARQALISH SHAKLLARI VA QONUNIY KURASH CHORALARI

Ne'matova Charosxon Nusratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti

1-kurs talabasi

e-mail: nematovacharosxon1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot tushunchasi, axborot olish erkinligi va uning resurslari, shaxslarning axborot olish, saqlash, tarqatish huquqi; axborot erkinligi bo'yicha qonun hujjatlari; „fake news” atamasi va yolg'on xabar muammosi, qanday kelib chiqishi, uning tarqalish shakllari ,shuningdek unga qarshi kurashish choralari haqida so'z borgan. Tadqiqot natijasida milliy va xorijiy olimlarning qarashlari, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan normalar mazmuni yoritilgan va har bir masala yuzasidan muallifning fikri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: axborot resurslari , fake news, shaxsga doir ma'lumotlar, kiber-jinoyatchilik, Mythbusters Team , dezinformatsiya.

ПРАВО НА ИНФОРМАЦИЮ, ПОХВАЛУ И ПРОБЛЕМА «ФЕЙКОВЫХ НОВОСТЕЙ», РАСПРОСТРАНЕНИЕ И БОРЬБА ОДЕЖДЫ

Нематова Чаросхан Нусратовна.

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет публичного права студент 1 курса

Электронна почта: nematovacharosxon1@gmail.com

Аннотатсия.: В статье право на получение информации, свобода получения информации и ее ресурсов, право получать, хранить, распространять информацию; законодательство о свободе информации; Говорили о термине «фейковые новости» и проблеме фейковых новостей, их происхождении, распространении, а также борьбе с ними. Научно обоснованные отечественные и научно-исследовательские работы, содержание нормативных актов поясняются в соответствующих нормативных документах и излагается мнение автора по каждому вопросу.

Ключевые слова: информационные ресурсы, фейковые новости, личная информация, киберпреступность, команда «Разрушители мифов», дезинформация.

THE RIGHT TO INFORMATION, SECURITY AND THE PROBLEM OF "FAKE NEWS": GOALS, FORMS OF DISTRIBUTION AND LEGAL MEASURES

Nematova Charoskhan Nusratovna

Tashkent State Law University

Faculty of Public Law 1st student

e-mail: nematovacharosxon1@gmail.com

Abstract.: *In this article, the concept of information, freedom of information and its resources, the right of individuals to receive, store, distribute information; legislation on freedom of information; The term "fake news" and the problem of fake news, its origin, forms of its spread, as well as measures to combat it were discussed. As a result of the research, the views of national and foreign scientists, the contents of the norms defined in the relevant normative legal documents were clarified, and the opinion of the author was expressed on each issue.*

Keywords: *information resources, fake news, personal information, cyber-crime, Mythbusters Team, disinformation.*

Kirish

XXI asrda axborot kundalik hayotning asosiy qismiga aylandi. Axborot olish huquqi har bir shaxsning o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish demakdir. Fuqarolarning o'zlariga tegishli bo'lgan hujjat, qaror va boshqa materiallar haqida ma'lumot olishi davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan ta'minlanadi.

Butun dunyoda 86%dan ko'proq insonlar axborotlarni mobil telefon orqali olishadi. O'zbekiston Respublikasida kutubxona va hujjatxonalaridan foydalanish bepulligi, fuqarolar o'zlariga zarur axborotni bevosita yoki qonuniy vakillari yordamida izlash, olish, tadqiq etish va tarqatish, hujjat va boshqa axborot manbalaridan nusxa, foto-tasvir olishlariga ijozat berilganligi ta'minlangan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda axborot olamida „yolg'on xabar“ tarqatish muammosi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda yolg'on ma'lumotlar yangilik emas, biroq bu 2017-yildan beri dolzarb mavzuga aylangan. An'anaga ko'ra, biz yangiliklarni ishonchli manbalar, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalaridan olamiz. Ular amaliyot qoidalariga qat'iy amal qilishlari shart. Biroq, internet tartibga solish yoki tahrir standartlari bilan ma'lumot va yangiliklarni nashr etish, almashish va iste'mol qilishning butunlay yangi usulini ishga tushirdi.

Soxta xabarlar – yangilik sifatida taqdim etiladigan yolg'on ma'lumotlar hisoblanadi. „Fake news“ atamasi birinchi marta 1890-yillarda vujudga kelgan bo'lib, har qanday yolg'on ma'lumotlarga nisbatan aytiladi. Bu hozir global muammoga aylangan va har kuni dunyo bo'ylab 20% odam „soxta xabar“lar qurboniga aylanadi.

Material va metodlarlar

Mazkur tadqiqot jarayonida uchta savolg javob berishga harakat qilindi:

Birinchidan, mamlakatimizda axborot hamda axborot olish huquqining qay darajada ta'minlanganligi, axborot olish resurslari; ikkinchidan, „fake“ xabar muammosi, qanday maqsadlarda tarqalishi va uning shakllari; uchinchidan: „yolg'on xabar“ tarqalishiga qarshi qanday qonuniy kurash choralari qo'llaniladi?

Ushbu savollarga javob topish orqali mazkur tadqiqotda axborot olish erkinligi, „yolg'on xabar“ va uning tarqalishini oldini olishga doir materiallari va ushbu masalaga oid olimlarning asarlardan, ilmiy maqolalaridan foydalanildi hamda muallifning xulosa va mulohazalari ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Axborotsiz hayotimizni tasavvur etish qiyin. Kundalik hayotimizda yo axborot iste'molchisi, yo uzatuvchisi yoxud uning tarqatuvchisi hisoblanamiz. Bu o'z-o'zidan axborot almashinuvini yuzaga keltiradi. Axborot — biror voqea-hodisa haqidagi batafsil xabar shuningdek, manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, to'g'risidagi ma'lumot. Shuningdek inson o'z sezgi organlari orqali qabul qiladigan signallar majmuyi ham axborot sanaladi.

Kibernetika fanining asoschilaridan biri bo'lgan N.Viner axborot haqida quyidagicha so'z yuritadi: „Axborot – bu bizning tashqi dunyoga moslashish jarayonida undan oladigan ma'lumotlarni o'zida ifoda etadigan tushunchadir“.

Tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi dunyoda fuqarolarning yangi sharoitlarga moslashishlariga ko'maklashish, ularga bo'layotgan voqealar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida axborot berib borish, shuningdek, fuqarolar, ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyati organlari o'rtasida samarali munosabatlar tizimini o'rnatishga sharoit yaratishda, eng avvalo, fuqarolarning axborotdan foydalanish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish va kafolatlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.²⁴

Dunyo mamlakatlarida aholining axborot olish huquqi qanchalik ta'minlanganligini nazorat qilish vazifasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan YuNESKO zimmasiga yuklangan. Shuning uchun 28 sentyabr – Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni dastavval aynan YuNESKOning 2015-yildagi rezolyusiyasi asosida e'lon qilingan bo'lsa, 2019-yilda BMT Bosh Assambleyasi uni xalqaro sanalar taqvimiga kiritgan.

BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror taraqqiyot maqsadlari tamoyillaridan kelib chiqqan holda, YuNISEF keng jamoatchilikning axborotdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi muhimligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Zero, axborot erkinligi – bugungi zamon demokratiyasining asosiy tayanchlaridan biridir.²⁵

Axborot olish huquqi — har bir shaxsning ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, tele va radio kompaniyalar orqali ma'lumotlarni qabul qilishi. Shuningdek, axborotdan erkin foydalanish huquqi ham mavjud bo'lib u inson tug'ilgani bilan unga

²⁴ [file:///C:/Users/%D0%B0%D1%81%D1%80/Downloads/davlat va huquq asoslari 11_uzb.pdf](file:///C:/Users/%D0%B0%D1%81%D1%80/Downloads/davlat%20va%20huquq%20asoslari%2011%20uzb.pdf)

²⁵ <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8761>

beriladigan, qonun normalari bilan ta'qiqlanmagan har qanday axborotni olish, saqlash, tarqatish mumkin bo'lgan harakatlardir. Bu huquq O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 33-moddasida qayd etilgan. Unga ko'ra: „Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi”.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasiga muvofiq, “Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi”. Axborot erkinligi – insonning asosiy huquqi. U erkinlikning Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z himoyasiga olgan barcha turlari uchun mezon sanaladi.

Bundan tashqari, „Axborotlashtirish to'g'risida”gi qonunda ham axborot resurslaridan erkin foydalanish huquqi belgilangan. Unga ko'ra, axborot resurslari ulardan erkin foydalanish toifalari bo'yicha hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslariga va erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga bo'linadi.

Cheklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan axborot resurslari *hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridir.*

Davlat sirlari to'g'risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo'yilgan axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari *erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga kiradi.*²⁶

„Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi qonunda esa axborot erkinligi kafolatlari quyidagicha berilgan:

Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar.

²⁶ <https://lex.uz/docs/-83472>

Bu huquqning mohiyati shundan iboratki, har kim xohlagan ma'lumot yoki axborotlarni izlash, tarqatish huquqiga ega, lekin bu davlat siri yoki boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan sirlarni tashkil etsa ma'lum bir cheklovlar mavjud. Chunonchi, sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdo-sotiq va shunga oid axborotni egasining rozilgisiz oshkor qilishi, tarqatishi yoki foydalanish maqsadida to'plash jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, shaxs bilan bog'liq ma'lumotlarni ham uning rozilgisiz olish yoki yolg'on ma'lumotlarni tarqatish qonunchilikka binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi va bu qator qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 31-moddasi:

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

„Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunning 14-moddasi:

Shaxsga doir ma'lumotlarni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor etishga, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida hammaga ma'lum qilishga, Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirishga yoki shaxsga doir ma'lumotlardan biror-bir boshqa usul bilan foydalanish imkonini berishga qaratilgan harakatlar shaxsga doir ma'lumotlarni tarqatishdir.

Agar bu shaxsning rozilgisiz amalga oshirilsa qonunga xilof hisoblanadi.

Shuningdek, Jinoiyat kodeksining 191-moddasi bilan tartibga solinadi.

Har bir tarqatilayotgan axborot haqqoniy dalillarga asoslangan bo'lishi shart. Rivojlanib borayotgan hozirgi davrda hamma axborot va ma'lumotlar ham aniq va haqiqiy bo'lmasligi mumkin. Hozir ko'p odamlar ijtimoiy media saytlari va tarmoqlaridan yangiliklar olishadi. Shuning uchun ko'pincha ushbu ma'lumotlarning ishonchli yoki ishonchli emasligini aytish qiyin bo'lishi mumkin. Axborotning haddan tashqari ko'p yuklanishi va internetning odamlar tomonidan qanday ishlashini umuman tushunmaslik ham soxta yangiliklar yoki yolg'on xabarlarining ko'payishiga yordam beradi. Ijtimoiy media saytlari ushbu turdagi axborotlar ko'lamini oshirishda katta rol o'ynashi mumkin.²⁷ Asosan, biz tasdiqlanadigan faktlar, manbalar yoki iqtiboslarsiz bo'lgan xabarlarni "fake xabarlar" deb ataymiz.

Biroq, "soxta yangiliklar" yuqoridagi tor ta'rifdan ancha katta bo'lgan murakkab va nozik muammo ekanligini tan olish muhimdir. Bu atamaning o'zi siyosiy lashgan va har qanday qarama-qarshi nuqtai nazarni obro'sizlantirish uchun keng qo'llaniladi. Ba'zi odamlar undan raqiblarini, bahsli masalalarni yoki ayrim ommaviy axborot vositalarining ishonchliligini shubha ostiga qo'yish uchun foydalanadilar²⁸.

²⁷ <https://www.webwise.ie/teachers/what-is-fake-news/>

²⁸ <https://guides.lib.umich.edu/fakenews>

Oksford lug'atida "fake" so'zi "soxtalashtirish, qalbakilashtirish, noto'g'ri ma'lumot berish" deb tarjima qilingan. Bu so'z vaqt sinovidan o'tgan va hozir ham o'z ma'nosini yo'qotmagan.²⁹

Soxta xabarlar demokratiyaga qarshi fitna uyushtiradi.³⁰ Bu davlatning rivojlanishiga ma'lum bir to'siq vazifasini bajarishi mumkin.

Fake tushunchasi bir necha xil media hodisalarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

- soxta matnlar, fotosuratlar, video va audio fayllar;
- ijtimoiy tarmoqlardagi haqiqiy odamlar, xayoliy qahramonlar, tarixiy yoki belles-lettres qahramonlari nomidan yaratilishi mumkin bo'lgan soxta sahifalar va bloglar;
- mashhur veb-saytlarning soxta sahifalari (bunday sahifalarga kirishda foydalanuvchi ma'lumotni ishonchli, ishonchli manbadan oladi deb o'ylaydi: bunday veb-sahifalar foydalanuvchi o'z login va parolini soxta veb-sahifaga kiritishi uchun xakerlar tomonidan yaratilgan, shuning uchun xaker ular bilan tanishadi va ulardan o'z maqsadlari uchun foydalanadi);
- internet-botlar sahifaga layk bosish va ijobiy sharhlar qoldirishda davom etganda, shaxsning soxta mashhurligi, ishi, loyihasi buyurtmachi tomonidan yaratilgan;
- faktlar va hodisalar to'g'risida to'liq soxta yoki qisman buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar.³¹

Yolg'on xabarlarni tarqatish usullari va shakllari bo'yicha bir qator misollarni keltirish mumkin. Xususan, biror bir mashhur insonni o'limi sarlavhasi ostida boshqa yangilikni ko'rsatish, pul ishlash maqsadida kasal bolalar surati qo'yilgan soxta postlar joylash va bu xabarga ishonib ba'zi insonlarning firibgarlar tuzog'iga tushishi, biror bir dori vositasini yoki mevani iste'mol qilish o'limga olib keladi deya aytilgan soxta vajlar, shuningdek bugungi kunning eng dolzarb muammosiga aylangan kiber-jinoyatchilik ham soxta xabarlarni tarqatish orqasidan rivojlanib bormoqda. Masalan, oddiygina telegram messenjeri misolida aytadigan bo'lsak: „Alisher Usmonov namanganliklarga pul tarqatyapti“, „Mustaqillik bayrami munosabati bilan har bir oilaga 600 ming so'mdan beriladi“, „Omad shouda ishtirok eting va pul yutib oling“, „Ushbu postni 10 ta guruhga tarqating va 10000 gegabaytga ega bo'ling“, „Open byudjetga ovoz bering“ kabi sarlavhalar ostida telefonga xabarlar keladi va link ustiga bosilgan zahoti shaxsning ruxsatisiz uning telegram akkountiga kirib bu xabarni hammaga yuborib chiqadi hamda plastikdagi pullar ham yechib olinadi.

AQSH va Germaniyaning axborot xavfsizlik tizimi o'rganib chiqildi. Unga ko'ra, Germaniya AQSHdan keyin birinchi bo'lin soxta xabarlarni aniqlaydigan tizimni test rejimida ishga tushirgan. Bu Germaniyaning 2017-yil sentabriga mo'jallangan Bundestag

²⁹ Davlatbekov S.K. Tarixda va zamonaviy dunyoda „Fake news“ atamasi // <https://cyberleninka.ru/article/n/termin-fake-news-v-istorii-i-sovremennosti>

³⁰ Nexis Uni // <https://advance.lexis.com/document/teaserdocument/?pdmfid=1516831&crd=3c93f022-420c-428a-b753-ec92eb1085dc&pddocfullpath=%2Fshared%2Fdocument%2Fnews%2Furn%3AcontentItem%3A69KH-PNM1-JCG7-80Y0-00000-00&pddocid=urn%3AcontentItem%3A69KH-PNM1-JCG7-80Y0-00000-00&pdcontentcomponentid=443607&pdteaserkey=h2&pditab=allpods&ecomp=tmnyk&earg=sr0&prid=7f18fed1-64cc-434a-be53-048f55a1d05a>

³¹ Suxodolov A.P., Bychkova A.M. Soxta yangiliklar zamonaviy media hodisasi sifatida: soxta yangiliklarning ta'rifi, turlari, roli, va unga qarshi kurashish choralari // <https://cyberleninka.ru/article/n/fake-news-as-a-modern-media-phenomenon-definition-types-role-of-fake-news-and-ways-of-counteracting-it>

saylovoldi kompaniyasiga yaqinlashyotgani munosabati bilan soxta xabarlarini oldini olish maqsadida yo'lga qo'yildi.

Ushbu muammoga qarshi kurashish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti va JSST hamkorlikda Facebook, Google, Pinterest, Tencent, Twitter, TikTok kabi yirik internet-provayderlar va ijtimoiy tarmoqlar vakillarini birlashtirgan "Mythbusters Team"ni tuzdilar. Youtube va boshqa kompaniyalar soxta ma'lumotlarni (yolg'on tibbiy ma'lumotlar, retseptlar, maslahatlar, diagnostika, mish-mishlar, fitna nazariyalari va aholi salomatligi uchun xavf tug'diruvchi shunga o'xshash ma'lumotlar) olib tashlash bo'yicha faol ishlamoqda.³²

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

• „Ma'muriy javobgarlik to'g'risida“gi kodeksning 202/2- moddasida yolg'on axborot tarqatishga qarshi jazo choralari berilgan. Xususan:

–Shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish,

–bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

–Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish,

–bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

• Jinoyat kodeksining 244/6-moddasi yolg'on axborot tarqatish :

Shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, ushbu Kodeksning 244¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini mavjud bo'lmagan taqdirda, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

³² Vladimirona O.Y, Starkova L.M. Legal aspects of countering the creation and dissemination of fake information on the internet on the example of the domestic legislation of states and the practice of international regional organizations// <https://cyberleninka.ru/article/n/legal-aspects-of-countering-the-creation-and-dissemination-of-fake-information-on-the-internet-on-the-example-of-the-domestic>

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) ommaviy tadbirlar jarayonida yoki favqulodda vaziyat holatida;
- b) juda ko'p miqdorda zarar yetkazilgan yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan holda;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Yolg'on axborot tarqatish yuqoridagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ko'rinib turibdiki, davlatlarning milliy qonunlari darajasidagi bir tomonlama tashabbuslar bu muammoni hal qilish uchun yetarli emas. Integratsiyalashgan yondashuv turli sohalardagi sa'y-harakatlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi:

- dezinformatsiya va soxta ma'lumotlar fenomenini, shu jumladan texnologik, huquqiy, jurnalistik jihatini, ushbu hodisaning mohiyatini tushunish uchun fanlararo o'rganish zarurati, ushbu sohada yagona kategoriyaviy apparatni, xususan, atamalarni me'yoriy birlashtirish. «dezinformatsiya», «soxta ma'lumot», jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan qilmishlar tarkibini aniqlash mezonlari, muayyan ma'lumotni «soxta» deb tasniflash mezonlari va boshqalar.

- fuqarolik jamiyati, biznes tuzilmalari, xususiy sektor vakillari, IT-industriya vakillarini jalb qilgan holda, global internet makonini "ko'p tarafdorlik" va o'zini o'zi tartibga solish tamoyilini hisobga olgan holda barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilish zarurati;

- huquqiy va texnologik xarakterdagi xalqaro standartlarni o'z ichiga olgan yagona yaxlit mexanizmni yaratadigan dezinformatsiya, soxta ma'lumotlarga qarshi kurashish sohasida hamkorlikning xalqaro mexanizmini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadida davlatlararo hamkorlik zarurati. Bu, o'z navbatida, alohida davlatlar darajasida ko'rilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlarning parchalanishini yengib o'tishga yordam beradi va "OAV" texnologiyalarini axborot qarama-qarshiligi vositasiga aylantirishga urinishlarni minimallashtiradi. Albatta, hamkorlik qilish va ushbu muammoga qarshi kurashishning bunday mexanizmi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalariga qat'iy muvofiq ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hamda ayrim hukumatlarning senzura va haddan tashqari davlat nazoratini o'rnatishga urinishlari uchun o'ziga xos to'siq bo'lishi kerak. Axborot makonini himoya qilish, axborot xavfsizligini

ta'minlash bahonasida inson huquqlari va ommaviy axborot vositalari erkinligini cheklash va fuqarolarni Internetda dezinformatsiyaning buzg'unchi ta'siridan himoya qilish lozim.³³

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur tadqiqotda qayd etilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, quyidagi natijalarga e'tibor qaratish mumkin:

1. AQSH va Germaniya mamlakatlarining Facebook platformasida yo'lga qo'yilgan yolg'on xabarlarini aniqlaydigan test tizimi mavjud. Lekin bu test tizimini nafaqat Facebook platformasi, balki Instagram, Twitter, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham qo'llanilishi kerak.

2. O'zbekiston qonunchiligida yolg'on axborotga qarshi jazo choralari bilan birga noto'g'ri ma'lumot tarqatgan shaxsning akkountlari ham bloklanishi kerak.

Xulosalar

Mamlakatimizda axborot olish huquqi va erkinligi aholi uchun yetarli darajada ta'minlangan. Har kim o'zi istagan axborotni xohlagan paytda va joyda izlash imkoniga ega. Lekin yolg'on ma'lumotlar bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash choralari qonunchilikda hali to'liq shakllanmagan, xususan „fake news“ bilan bog'liq kiberjinoyatchilik rivojlanishda davom etmoqda. O'zbekiston ham „fake news“ga qarshi kurashishda xalqaro miqyosda qo'llanilayotgan choralardan foydalanishi lozim. Bundan tashqari yolg'on xabarlariga aldanib qolmaslik uchun jamiyatni ushbu jinoyatga qarshi kurashishga jalb etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES:

1. [file:///C:/Users/%D0%B0%D1%81%D1%80/Downloads/davlat va huquq asoslari 11 uzb.pdf](file:///C:/Users/%D0%B0%D1%81%D1%80/Downloads/davlat%20va%20huquq%20asoslari%2011%20uzb.pdf) Toshkent. 2019-yil, 98-103-bet
2. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8761>
3. <https://lex.uz/docs/-83472>
4. <https://www.webwise.ie/teachers/what-is-fake-news/>
5. <https://guides.lib.umich.edu/fakenews>
6. Davlatbekov S.K. Tarixda va zamonaviy dunyoda „Fake news“ atamasi// <https://cyberleninka.ru/article/n/termin-fake-news-v-istorii-i-sovremennosti>
7. Nexis Uni// <https://advance.lexis.com/document/teaserdocument/?pdmfid=1516831&crd=3c93f022-420c-428a-b753-ec92eb1085dc&pddocfullpath=%2Fshared%2Fdocument%2Fnews%2Furn%3AcontentItem%3A69KH-PNMI-JCG7-80Y0-00000-00&pddocid=urn%3AcontentItem%3A69KH-PNMI-JCG7-80Y0-00000->

³³ Vladimirona O.Y, Starkova L.M. Legal aspects of countering the creation and dissemination of fake information on the internet on the example of the domestic legislation of states and the practice of international regional organizations// <https://cyberleninka.ru/article/n/legal-aspects-of-countering-the-creation-and-dissemination-of-fake-information-on-the-internet-on-the-example-of-the-domestic>

00&pdcontentcomponentid=443607&pdteaserkey=h2&pditab=allpods&ecomptmnyk&ea
rg=sr0&prid=7f18fed1-64cc-434a-be53-048f55ald05a

8. Suxodolov A.P, Bychkova A.M. Soxta yangiliklar zamonaviy media hodisasi sifatida: soxta yangiliklarning ta'rifi , turlari, roli, va unga qarshi kurashish choralari // <https://cyberleninka.ru/article/n/fake-news-as-a-modern-media-phenomenon-definition-types-role-of-fake-news-and-ways-of-counteracting-it>

9. Vladimirona O.Y, Starkova L.M. Legal aspects of countering the creation and dissemination of fake information on the internet on the example of the domestic legislation of states and the practice of international regional organizations// <https://cyberleninka.ru/article/n/legal-aspects-of-counteracting-the-creation-and-dissemination-of-fake-information-on-the-internet-on-the-example-of-the-domestic>